

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“KELISHILDI”

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi _____
“ ____ ” _____ 2023 yil

“TASDIQLAYMAN”



Urganch davlat universiteti rektori

_____ B. Abdullayev

_____ 2023 yil

KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI VA
BAHOLASH MEZONI

61010300 – Sport faoliyati (Xotin-qizlar sporti) ta'lim yo'nalishi
uchun

Urganch – 2023

Dastur Urganch davlat universiteti o'quv-uslubiy Kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan. 2023 yil 19-aprel 4-sonli majlis bayoni.

Tuzuvchilar:

UrDU "Sport faoliyati" kafedrası mudiri: p.f.n., dotsent, F.T.Masharipov

UrDU "Jismoniy madaniyat" fakulteti dekani: p.f.n., dotsent S.U.Ko'palov

UrDU "Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrası mudiri: p.f.b.f.d. (PhD) Z.T.Sherov

UrDU "Sport faoliyati" kafedrası dotsenti: B.J.Yadgarov

UrDU "Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrası o'qituvchisi: p.f.b.f.d. (PhD) J.Sh.Jammatov

Taqrizchilar:

UrDU "Sport faoliyati" kafedrası professori: M.M.Raximov

UzMU Taekvondo va sport faoliyati fakulteti dekani prof: V.Sh.Raximov

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Urganch davlat universiteti 61010300-Sport faoliyati (xotin-qizlar sporti) ta’lim yo’nalishi) ta’lim yo’nalishi yo‘nalishi bo‘yicha 2023-2024 o‘quv yili qabuli uchun abiturentlardan qabul qilinadigan ijodiy (kasbiy) imtihonlarning me’yoriy talabalari, baholash mezonlari hamda o‘tkazish tartibi

KIRISH

Jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarga o‘z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchni mustaxkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg‘ularini kamol topish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda mazkur soha rivojiga qaratilgan qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan va jadallikda hayotga tatbiq etib kelinmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni va “Ta’lim” to‘g‘risidagi Qonunlari, hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi PQ – 2909-sonli “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2017 yil 27 iyuldagi PQ – 3151-sonli “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarning ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil, 24 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5924-sonli Farmoni, 2021-yil 5 noyabrdagi “Sport ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish orqali Olimpiya va Paralimpiya sport turlari bo‘yicha sportchilar zaxirasini shakllantirish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ – 5279-son Qarori va 2022 yil 15 iyundagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to‘g‘risidagi” PQ-279-son Qarorlari shular jumlasidandir.

Ushbu dastur O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining Kengashida ko‘rib chiqilgan kasbiy imtihonlar dasturi va baholash me’zonlari asosida tuzilgan.

Dastur Urganch davlat universitetining 61010300-Sport faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalish bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi umumiy o‘rta va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi (BO‘SM, OZIMI) jismoniy tarbiya va sport dasturlari asosida tuzilgan, abituriyentlarning jismoniy mashqlari bajarishdagi amaliy harakat ko‘nikma va malakalarini baholashga mo‘ljallangan.

Dasturning maqsadi va vazifalari

Dasturning asosiy maqsadi – abituriyentlarning jismoniy tarbiya fanidan egallagan bilim, ko‘nikma va malakalari (umumiy va maxsus jismoniy (texnik) tayyorgarlik) holati darajasini belgilangan mezonlar asosida aniqlash hamda baholashdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2017 yil 20 iyundagi 393-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim muassasalarining bakalavriyatiga talabalarni qabul qilish tartibi va qoidalari to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq 2023/2024 o‘quv yilida Urganch davlat universitetiga 61010300 – Sport faoliyati (**Xotin-qizlar sporti**) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha qabul e‘lon qilingan.

Yuqoridagi ta’lim yo‘nalishidan ya’ni sport faoliyati (faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha) bo‘yicha ko‘p ballik baholash tizimi asosida kasbiy (ijodiy) imtihonlar o‘tkaziladi (sport turlari bo‘yicha me‘yoriy talablar va baholash mezonlari ilova qilinadi).

Abiturentlar tanlangan sport turidan kasbiy (ijodiy) imtihonlarni topshiradilar. Ijobiy (kasbiy) imtihonlarni o‘tkazishda har bir abituriyentdan o‘z qobiliyatini yuqori darajada namoyon qilishiga imkoniyat yaratiladi. Sport turlari bo‘yicha ijobiy (kasbiy) imtihon ballarining maksimal yig‘indisi (summasi) sinov natijalariga ko‘ra (umumiy jismoniy tayyorgarlik va maxsus jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha) – 156 ballni tashkil etadi.

Tanlangan sport turi bo‘yicha me‘yoriy talablar sport turlarining xususiyatlariga oid mashqlardan tuzilgan.

Kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o‘tkazish tartibi

Kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o‘tkazish maxsus ishlab chiqilgan me‘yorlarni qabul qilishdan iborat. Imtihonning har bir qismini topshirish yuqori jismoniy yuklama (nagruzka) va emonsional zo‘riqishni talab etadi. Shuni hisobga olgan holda abiturentlarga qulaylik va o‘z imkoniyatlarini yuqori darajada namoyon qilishlari uchun imkoniyat yaratish maqsadida ijobiy imtihonlar guruhlarga bo‘lingan holda o‘tkaziladi hamda bir necha imkoniyatning eng yaxshi natijasi tanlab olinadi.

Kasbiy (ijodiy) imtihon sinovlari kuni va vaqti ko‘rsatilgan holda tasdiqlangan jadval asosida belgilangan muddatlarda o‘tkaziladi.

800 metrga yugurish. Yuqori start, har bir yugurishda 6-10 nafar abituriyent qatnashadi. Start va finish chiziqlari joylari aniq belgilangan bo‘lishi shart. Masofani bosib o‘tish davomida yugurishdan yurish holatida o‘tgan yoki yugurish yo‘lagidan chiqib ketgan abituriyentlarning natijasi hisobga olinmaydi.

Joyidan turib uzunlikga sakrash. Abiturentlar ro‘yxatga ko‘ra joyidan turib uzunlikka sakrash uchun bir kishidan ajratiladi. Ushbu mashqni bajarish uchun har bir abituriyentga uch martadan urinish beriladi. Natija sakrash chizig‘idan sakrovchini oyoq kiyimini orqa qismigacha xisoblanadi, agar sakrovchi sakraganda qo‘llarini orqaga tirasa natija qo‘llardan xisoblanadi. Sakrash vaqtida chiziqni bossa urinish inobatga olinadi, lekin natija xisobga olinmaydi.

Kasbiy (ijodiy) imtihonlar quyidagi tartibda o‘tkaziladi:

a) abiturentning guruh ro‘yxati va pasporti tekshirilgandan so‘ng u imtihon topshirish uchun taklif qilinadi;

b) har bir abiturent tanlangan sport turi talablariga mos ravishda sport kiyimida bo‘lishi lozim;

v) predmet komissiyasi raisi va imtihon qabul qiluvchilar abiturentlarga imtihonlarni topshirish tartibi va qoidalarini tushuntiradilar;

g) har bir abiturentga sport kiyimini kiyish, chigal yozdi mashqlari (razminka) bajarish va imtihon topshirishga tayyorlanish uchun vaqt beriladi;

d) har bir me'yor topshirilganidan so'ng abiturent tomonidan ko'rsatilgan natija va unga qo'yilgan tegishli (baholash mezonlariga muvofiq ravishda) ball e'lon qilinadi;

e) barcha me'yorlar qabul qilinganidan so'ng abiturentlarga kasbiy (ijodiy) imtihonda to'plangan umumiy ballari e'lon qilinadi;

j) kasbiy (ijodiy) imtihonlarni qayta topshirishga ruxsat etilmaydi;

z) kasbiy (ijodiy) imtihonlarga kechikib kelgan yoki uning birida ishtirok etmagan abiturentlar kasbiy (ijodiy) imtihonlarni topshirishga qo'yilmaydi.

Sport faoliyati (xotin qizlar sportini rivojlantirish) yo'nalishi bo'yicha hujjat topshirgan abiturentlar ayollarga mo'ljallangan sport faoliyati turlaridan kasbiy (ijodiy) imtihonlarni topshiradilar.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik bo'yicha Ayollar uchun "800 metrga yugurish" va "Joyidan turib uzunlikka sakrash" qobiliyatini aniqlash bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonning baholash MEZONLARI

Ayollar				
Maksimal ball-93 ball			Maksimal ball -63 ball	
800 m (daq.s.)			Joyidan turib uzunlikga sakrash (sm)	
	Natija	Ballar	Natija	Ballar
1.	2:53.00	93	220	63
2.	2:53.50	92	219	62
3.	2:54.00	91	218	61
4.	2:54.50	90	217	60
5.	2:55.00	89	216	59
6.	2:55.50	88	215	58
7.	2:56.00	87	214	57
8.	2:56.50	86	213	56
9.	2:57.00	85	212	55
10.	2:57.50	84	211	54
11.	2:58.00	83	210	53
12.	2:58.50	82	209	52
13.	2:59.00	81	208	51
14.	2:59.50	80	207	50
15.	3:00.00	79	206	49
16.	3:00.50	78	205	48
17.	3:01.00	77	204	47
18.	3:01.50	76	203	46
19.	3:02.00	75	202	45
20.	3:02.50	74	201	44
21.	3:03.00	73	200	43
22.	3:03.50	72	199	42
23.	3:04.00	71	198	41
24.	3:04.50	70	197	40
25.	3:05.00	69	196	39
26.	3:05.50	68	195	38
27.	3:06.00	67	194	37
28.	3:06.50	66	193	36
29.	3:07.00	65	192	35
30.	3:07.50	64	191	34
31.	3:08.00	63	190	33
32.	3:08.50	62	189	32
33.	3:09.00	61	188	31
34.	3:09.50	60	187	30
35.	3:10.00	59	186	29
36.	3:10.50	58	185	28
37.	3:11.00	57	184	27
38.	3:11.50	56	183	26

39.	3:12.00	55	182	25
40.	3:12.50	54	181	24
41.	3:13.00	53	180	23
42.	3:13.50	52	179	22
43.	3:14.00	51	178	21
44.	3:14.50	50	177	20
45.	3:15.00	49	176	19
46.	3:15.50	48	175	18
47.	3:16.00	47	174	17
48.	3:16.50	46	173	16
49.	3:17.00	45	172	15
50.	3:17.50	44	171	14
51.	3:18.00	43	170	13
52.	3:18.50	42	169	12
53.	3:19.00	41	168	11
54.	3:19.50	40	167	10
55.	3:20.00	39	166	9
56.	3:20.50	38	165	8
57.	3:21.00	37	164	7
58.	3:21.50	36	163	6
59.	3:22.00	35	162	5
60.	3:22.50	34	161	4
61.	3:23.00	33	160	3
62.	3:23.50	32	159	2
63.	3:24.00	31	158	1
64.	3:24.50	30	157 va undan kam	0
65.	3:25.00	29		
66.	3:25.50	28		
67.	3:26.00	27		
68.	3:26.50	26		
69.	3:27.00	25		
70.	3:27.50	24		
71.	3:28.00	23		
72.	3:28.50	22		
73.	3:29.00	21		
74.	3:29.50	20		
75.	3:30.00	19		
76.	3:30.50	18		
77.	3:31.00	17		
78.	3:31.50	16		
79.	3:32.00	15		
80.	3:32.50	14		
81.	3:33.00	13		
82.	3:33.50	12		
83.	3:34.00	11		
84.	3:34.50	10		
85.	3:35.00	9		
86.	3:35.50	8		

87	3:36.00	7		
88	3:36.50	6		
89	3:37.00	5		
90	3:37.50	4		
91	3:38.00	3		
92	3:38.50	2		
93	3:39.00	1		
94	3:39.01 va undan ko`p	0		

Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar ijodiy imtihon natijalari bo'yicha universitet qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay'atiga imtihon natijalari e'lon qilingandan so'ng 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat mazmuni faqat o'zlarining to'plagan ballari yuzasidan bo'lsa qabul qilinadi.

Apellyatsiya komissiyasi a'zolari oliy ta'lim muassasasi rektori buyrug'i bilan tasdiqlanadi.